



## THE TEACHER-STUDENT RELATIONSHIP IN THE THINKING OF THE EASTERN REGION

*Maftuna Muminova*

senior lecturer

Tashkent International University of Financial Management and Technologies  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** region, morality, thinking, teacher, student, attitude, education, environment, abilities, talent, influence.

**Abstract:** This article examines the problem of morality in the thinking of the medieval Muslim East and the manifestations of this problem in teacher-student relations.

**Received:** 09.02.25

**Accepted:** 11.02.25

**Published:** 13.02.25

## SHARQ MINTAQASI TAFAKKURIDA USTOZ – SHOGIRD MUNOSABATLARI

*Maftuna Mo'minova*

katta o'qituvchi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** mintaqa, axloq, tafakkur, ustoz, shogird, munosabat, tarbiya, muhit, qobiliyat, iste'dod, ta'sir.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta asrlar musulmon Sharqi mintaqasi tafakkurida axloq masalasi va ushbu masalaning ustoz-shogird munosabatidagi ko'rinishlari haqida fikr yuritiladi.

## ОТНОШЕНИЯ УЧИТЕЛЯ И УЧЕНИКА В МЫШЛЕНИИ ВОСТОЧНОГО РЕГИОНА

*Мафтуна Муминова*

старший преподаватель

Ташкентский международный университет финансового менеджмента и технологий  
Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** регион, мораль, мышление, учитель, ученик, отношение, воспитание, среда, способности, талант, влияние.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема морали в мышлении средневекового мусульманского Востока и проявления

Sharq mumtoz adabiyoti manbalarini o‘qisak, tarbiya borasida turli fikrlarni uchratamiz. Mulohazalarga ko‘ra, inson tarbiyasi uning qaysi oilada tug‘ilgani, ota-onasi, nasabiga bog‘liq emas. Tarbiya topgan muhiti muhim. Ikkinchi talqinga ko‘ra nasli buzuq, asli betayin kishini tarbiya qilishning foydasi yo‘q. U baribir asliga tortadi. “Guliston”ning 7-bobi – “Tarbiyaning ta’siri bayoni”da ham ana shu haqida so‘z boradi. Bobning birinchi hikoyatida keltirilishicha, bir vazirning takasaltang o‘g‘li bor edi. Vazir o‘g‘lini bir donishmandga tarbiya uchun beradi. “Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam bo‘lsa” deydi.

Ancha vaqt o‘tadi. Tarbiyaning foydasi bo‘lmaydi. Donishmand vazirga o‘g‘li odam bo‘lмагани, o‘зини ақлдан оздирганини хабар qилади. Shoir she’riy xulosa qiladi: qobiliyat bo‘lsa, tarbiya ta’sir qilishini, qancha urinsa ham temir javhar bo‘lmasligi, Iso eshagi Makkaga borib kelsa ham eshakligicha qolishini aytadi. Yana bir hikoyatda podshoh o‘g‘lini murabbiyga topshirib, o‘z farzandingday tarbiyala, deydi. Murabbiy uni bir necha yil tirishqoqlik bilan o‘qitadi. O‘z farzandlari ilm-fan, odob-axloqda barkamol bo‘ladilar. Podshohning bolasini odam bo‘lmaydi. Podshoh murabbiyni ahdni buzganlikda ayblaydi. Murabbiy esa tarbiya bir xil bo‘lgani, ammo tabiatlari har xil ekanligini aytadi[1]. Bugungi kunda uchrab turadigan, ta’sirning yaxshi bir usuli bayon qilingan. Ba’zan vazifani, biror topshiriqni, aytilgan ishni ko‘pchilik bajarmagan bo‘lsa avvalo, o‘z farzandlarimiz, yaqinlarimiz yoki nufuzi baland rahbar, amaldor, puldorning bolasini jazolaymiz. Bu boshqalarga ibrat bo‘ladi yoki ta’sirliroq bo‘ladi.

Sa’diy hikoyatida yozilishicha, bir olim shahzodaga ta’lim berar edi. Aytganini qilmasa, qattiq azoblar, kaltaklar edi. Shahzoda otasiga shikoyat qiladi. Podshoh olimni chaqirib, oddiy kishilar bolasiga azob bermaysan, nega mening o‘g‘limni jazolaysan deb so‘raydi. Olim oddiy kishilarning bolalariga bunday qilsam, keng yoyilmaydi, podshohning farzandiga qilinsa, tillarda doston bo‘lib, ta’siri katta bo‘ladi deydi. Bu gap podshohga ma’qul bo‘lib, in’omlar beradi. Shoir shunday misralar keltiradi:

*Кимгэ уаљиғидан берїлмас адаоб,*

*Улғаүғаң боладі бахмсіз, дилі ғаш...[2].*

“Guliston”dagi mana bu hikoyat va fikrlarni Sa’diuning ustoz va shogird haqidagi mulohazalarining eng yuqori nuqtasi, cho‘qqisi deyish mumkin. Hikoyatda yozilishicha Mag‘rib diyorida “qosh-qovog‘i osilgan, tili achchiq, badfe’l, dilozor” bir muallim bor ekan. Bolalar undan qo‘rqr, tarsaki yer edi. Ota-onalar uni maktabdan haydaydilar. Boshqa bir “sofdil, namozxon, sodda va muloyim” muallimni olib keladilar.

Bolalar uning muloyimligidan foydalanib, “devtabiat bo‘lib ketadilar va ilm o‘rganishni tark etadilar”. Ular o‘yin-kulgiga beriladilar. Shoir buni quyidagicha tasvirlaydi:

*Агарда муаллим болса беъзар,  
Балалар синфиң қўлишар базар.*

Oradan bir oz vaqt o‘tgach, uzr so‘rab, ko‘nglini olib, yana oldingi muallimni o‘z o‘rniga tayinlaydilar. Sa’diy bir mo‘ysafid tilidan quyidagi ibratli misralarni keltiradi:

*YUбарді оғліні мактабга наадшай,  
Qіліп қойнішга нұкра маҳмада жаң.  
Күмүш үл маҳмада зардін битеп уад:  
“Ама меһрідан ағзал жасабрі үстәд”[3].*

Boshqa bir hikoyatda ustoz farosatidan qoyil qolgan shogird haqida gapiriladi. Shogird vujudida bir yara bor edi. Ustozi har kuni “Yarang qalay” deb so‘raydi. Lekin hesh qachon “Yarang qayerda?” demaydi. Shunki odob yuzasidan odam a’zolarining hammasi ham tilga olinavermaydi. Uyalib qolmasligi uchun ustoz shogirddan atayin bu savolni so‘ramaydi[4]. Umuman Sa’diy asarlari, jumladan, “Guliston” asarida ko‘p masalalar qatori, ustoz-shogird, murabbiy-shogird, pir-murid masalalari ibratli tarzda yoritilgan.

O‘rta asrlar musulmon Sharqi mintaqasi tafakkurida axloqning mohiyatini tushuntiruvchi va axloqiylikni targ‘ib etuvchi mashhur pandnomalar – xalq ichida keng tarqalgan badiiy-didaktik asarlar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ular uchun umumiyl bo‘lgan xususiyat bu – axloqiy meyorlarni, tamoyillarni, axloqiy madaniyat omillarini ko‘philikka tushunarli, rang-barang shakllarda, qiziqarli hikoyatlar orqali kitobxonga yetkazishdan iborat. Shu jihatdan pandnomalar asrlar mobaynida axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos vositasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, ustoz-shogird munosabatlaridagi odob, axloq va nafosat masalalari pandnomada asarlarning ma’naviy asosini tashkil etadi. Xalqimizda “Ustoz otangday ulug” degan hikmatning mohiyatini donishmandlar “Ota – farzand uchun ne’matlarning aslidir, Ustoz – shogird uchun fazilatlarning aslidir.

Ota farzandni dunyoga kelishiga, ustoz esa barkamol bo‘lishiga vositachi. Farzand ota o‘giti bilan zaminda ulg‘aysa, ustoz o‘giti bilan osmon qadar yuksaladi. Shunday ekan Allohga hamd-u sano ayt, ularning qadriga yet” deb izohlaydilar.

Inson birorta kasb-hunar, ilm-ma’rifat o‘rganuvchi yoki bilgan ilmi-hunarini boshqalarga o‘rgatuvchi ustoz bo‘lsagina el-yurtga manfaati tegadi. El-yurtga manfaat beradigan ilm esa yoshlik paytida qo‘lga kiritiladi. Insonlarga yaxshilik va ilm-u hunar o‘rgatadigan ustozlarning fazlini bayon qilib Payg‘ambarimiz (s.a.v) albatta, Alloh taolo, uning farishtalari, samovot ahli va yer ahli, hattoki kovagidagi chumoli va dengizdagi baliqqacha barchasi yaxshilikni o‘rgatuvchi ustozga salovat aytib turadilar, deganlar. Bu daraja ustozlarga ko‘rsatilgan ulug‘ ehtirom belgisi bo‘lib, u Qur’oni karimning “Baqara” surasi 269-oyatida: “U O‘zi xohlagan kishilarga hikmat

(foyDALI ilm) beradi. Kimga hikmat berilsa, demak, unga ko‘p yaxshilik berilibdi” deya marhamat qilingan.

Hanafiylik mazhabining mashhur faqiji, “Hidoya” kitobining muallifi Burhoniddin Marg‘inoniyning shogirdi, buyuk alloma yurtdoshimiz Burhoniddin Zarnujiy (XII asr)ning “Ta’limu-l-muta’allim tariqu-t-ta’allum” (“Ilm o‘rganuvchiga ilm olish yo‘llarini o‘rgatish”) asarida ustoz-shogird munosabatlarida ustozni tanlash ham muhim mezon ekanligi uqtiriladi. Xususan, ilm talabi ishlarning eng oliysi va eng qiyini bo‘lganidek, ustozni tanlash ham chuqr mushohada va mulohazani talab etadigan jarayon. Eng ilmli, eng parhezkor va eng yoshi ulug‘ini ustoz sifatida ixtiyor qilish to‘g‘ri tanlov hisoblanadi. Alloma aytadi: “Ustoz tanlashda ikki oy uzoq o‘yla (kimlar bilandir) maslahat qil, toki uni tark qilishga, undan yuz o‘girishga hojat qolmasin. Bas, undan so‘ng uning oldida sobit tur, shunda ilming barokotli bo‘lg‘ay. Ilmingdan ham ko‘p manfaat topg‘aysan”[5].

Ustoz (muallim)ni, kitobni va hatto ustozidan ta’lim oladiganlarni ulug‘lash ham ilmni ulug‘lash jumlasidan deb bilgan Burhoniddin Zarnujiy shogird (o‘quvchi) oldida ham yomon xulqlardan saqlanmoqdek muhim talablar borligini ta’kidlaydi. Jumladan, tolibi ilm saboq olish paytida zaruratsiz ustoziga o‘ta yaqin o‘tirmasligi, balki shogird bilan ustoz orasi bir kamon miqdori bo‘lishi ta’zim (hurmat)dan dalolatdir.

Yurtimiz allomalaridan Ali Ibn Husayn Sug‘diy (XI asr)ning “Kitobu-l-huquq alhamsin” asarida musulmon odamning ota-onasi va yaqinlari kabi ustoz oldidagi burchlari bilan bir qatorda, ustozning shogird oldidagi va shogirdning ustoz oldidagi haqlariga doir hikmatlar bayon etiladi. Chunonchi, alloma ilm sababli yo‘lboshchi bo‘lganning haqqi xususida shogird uchun “unga ta’zim qilish, majlisini ulug‘lash, go‘zal holda qulqutish, yuzlanib o‘tirish, yordamchi bo‘lish” odobini belgilaydi: “Ilmda unga muhtoj bo‘lmasingni o‘ylab ham o‘tirma. Aqlingni unga forig‘ qil, fahmingni esa hozir tut. Diqqat bilan qulqutish, lazzatlarni rad qilib, butun e’tiboringni ilmga qarat. Johillarga yo‘liqqa elchi singari unga sen yo‘liqqa ningni bilib qo‘y. Bas, uning elchilik va unga munosib bo‘lish odoblariga xiyonat qilma”[6]. Shuningdek, agar ilm sababli unga ergashadiganlar ustozlik maqomida bo‘lsa, “Alloh taolo senga hikmat xazinalaridan bergani uchun ularga seni boshliq qilganini bilgil. Mana shu sababli sen egalik qilayotganiningni go‘zal suratda bajarib, o‘zingni bir xazinador, shafqatli, nasihatchi o‘rnida ko‘rgin. Agar shunday qila olmasang xoin, xalq uchun esa zolim deb (tarix sahifalariga) yozilib qolasan” [7].

Ajdodlarimiz ilmiy-ma’rifiy merosidagi ustoz-shogird munosabatiga doir hikmatlar bugungi kunda ham o‘zining ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini yo‘qotgan emas. O‘zining axloq-odobga oid asarlari bilan ko‘p asrlardan buyon mashhur bo‘lib kelayotgan faylasuflardan biri Husayn Voiz Koshifiy: “Agar sendan shogirdlik odobi nechta deb so‘rasalar yetta degin. Avvalo o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish, o‘z kasbiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish,

ustoz oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish, ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish, eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga qulq solmaslik, barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish” degan purma’no fikrlarni shogirdlarga uqtirgan. Yoki muqaddas dinimizda ham “Ustoz va muallimga o‘zni past tutib, xokisor bo‘lish – najot eshigi, ilm tahsil qilishning asosiy omillaridan biri” [8] deya ta’kidlangan. Demak, dinimiz ham shogirdga shunday o‘rgatadi va shunday uqtiradi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sa’diy Sheroziy. Guliston. –T.: G‘afur G‘ulom, 1968. –B. 148-149.
2. Sa’diy Sheroziy. Guliston. –T.: G‘afur G‘ulom, 1968. –B. 144-145.
3. O’sha asar. –T.: G‘afur G‘ulom, 1968. –B. 145-146.
4. O’sha asar. –T.: G‘afur G‘ulom, 1968. –B. 175-176.
5. Burhoniddin az-Zarnujiy. Ta’lim al-mutaallim tariq at-taallum. Ajdodlarimiz ma’naviy merosidan. O‘zR FA. –T.: Fan, 2014. –B. 39-40.
6. Ali Ibn Husayn As-Sug‘diy. Kitob al-huquq alxamsin.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondidagi №1492 raqamli qo‘lyozma.
8. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi Muhsiniy. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2011. – B. 35.